

TURLI TIZIMLI TILLARDA UZR SO'RASHNI IFODALOVCHI FONETIK, LEKSIK VA MORFOLOGIK TIL VOSITALARI

Murotova Dilnozaxon Xasan qizi

Farg'ona davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7342818>

Annotatsiya. Ushbu maqolada fonetika, leksika va morfologiya haqida umumiy tushunchalar hamda muloqot jarayonida uzr so'rashning turlari va ularning fonetik, leksik, morfologik xususiyatlari va vositalariga to'xtanilgan.

Kalit so'zlar: fonetika, leksika, morfologiya, uzr so'rash turlari, xususiyatlar, vositalar.

ФОНЕТИЧЕСКИЕ, ЛЕКСИЧЕСКИЕ И MORFOLOGICHESKIE SREDSTVA VYRAZHENIYA IZVINENIY V RAZNOSISTEMNYX YAZYKAX

Аннотация. В данной статье основное внимание уделяется общим понятиям фонетики, лексики и морфологии, а также видам извинений в процессе общения и их фонетическим, лексическим, морфологическим особенностям и средствам.

Ключевые слова: фонетика, лексика, морфология, типы извинения.

PHONETIC, LEXICAL AND MORPHOLOGICAL MEDIUM VYRAJENIYA IZVINENIY V RAZNOSISTEMNYX YAZYKAX

Abstract. This article focuses on the general concepts of phonetics, vocabulary and morphology, as well as the types of apologies in the process of communication and their phonetic, lexical, morphological features and means.

Keywords: phonetics, lexics, morphology, types of asking apology, expressing means.

Kishilar faoliyatning barcha sohalarida aloqa qilish jarayonida tildagi fonetik, leksik, frazeologik, grammatik vositalarni tanlash va qo'llashda bir-birlaridan ma'lum darajada farq qiladilar. Har qanday til, eng avvalo, tovushdir. Har qanday tilni o'zlashtirish tovushlarni o'rganishdan boshlanadi.

Fonetika – tovushlarni o'rganadigon bo'lim. Uning asosiy maqsadi ingliz tilidagi tovushlar va so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatish, shuningdek, so'zlashuvchilar nutqini idrok etish qobiliyatini rivojlantirishdir. Shuning uchun ingliz tilida to'g'ri gapirish va o'qishni o'rganish uchun ingliz alifbosini bilish va alohida fonemalarning talaffuzini va ularda ishlatiladigon so'zlarni o'rganish kerak.

Fonetikaning maqsadi fonetik birliklarning fizik-akustik, anatomik-fiziologik va lingvistik-funksional asoslarini o'rganish, ularning til mexanizmidagi rolini aniqlashdan iborat. Yuqorida aytib o'tilganidek, ingliz tilining o'ziga xos xususiyati mavjud harflar soniga mos kelmaydigan juda ko'p sonli tovushlardir. Ya'ni, bitta harf yaqin joylashgan harflarga qarab bir nechta fonemalarni yetkazishi mumkin. Shunga asoslanib, juda ehtiyotkorlik bilan va to'g'ri gapirish kerak. U yoki bu tovushni noto'g'ri ishlatish tushunmovchilikka olib keladi.

Ma'lumki, har bir inson xato qiladi va xatosini anglagan insongina kechirim so'raydi. Xatoni tan olish hatto o'z ona tilingizda ham qiyin. Undan ham qiyini kechirim so'rash uchun kerakli inglizcha so'zlarni tanlab olish. Ushbu maqola orqali yaqin kishingizdan, begona odamdan yoki boshlig'ingizdan uzr so'rash turlari haqida hamda uning fonetik, leksik va morfologik vositalari haqida ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Avvalo, chin dildan afsuslanish va kechirim so'rashdan tashqari vaziyatga qarab qo'llanilishi mumkin bo'lgan so'zni topishga to'g'ri keladi. Odatda, biz o'z his-tuyg'ularimizni

ifodalash uchun inglizchada kerakli soʻzlarni topa olmaymiz. Yoki suhbatdoshimiz bizni notoʻgʻri tushunishi mumkin va kechirish oʻrniga yanada koʻngli ogʻrishi mumkin. Hozir esa ingliz tilida kechirim soʻrash uchun *sorry*, *excuse* va *pardon* soʻzlarini kerakli joylarda ishlatilishini koʻrib chiqamiz.

Ingliz tilida kechirim soʻrash — kichik xatolarni tan olishning eng mashhuri *sorry* “kechir” soʻzi orqali ifodalanadi.

Ingliz fonetikasi klassik talaffuzni oʻz ichiga oladi, yaʼni “aniq” qoidalarni hisobga olib soʻz va iboralarni toʻgʻri talaffuz qilishdan iborat. *Sorry* soʻzining fonetik xususiyatlari shundan iboratki, *sorry* soʻzida 5 ta harf bor, lekin tovushlar soni 4 ta. Yozilish xususiyati boʻyicha 5 harfdan iborat soʻz yoziladi, lekin talaffuz qilinayotganda 4 ta tovush ishtirok etadi.

Sorry soʻzini biz *about* va *for* predloglari bilan birga ishlatamiz. Quyida toʻgʻri predlog tanlashni koʻrib chiqamiz:

To be sorry about — sodir boʻlgan biror hodisadan afsuslanish.

I am sorry about your loss. — Sizning yoʻqotishingizdan afsusdaman.

Agar siz biror narsa qilgan boʻlsangiz va bu uchun kechirim soʻrayotgan boʻlsangiz *sorry for/about smth*, ishlatishingiz mumkin.

I am sorry about/for bothering you. — Bezovta qilganim uchun kechiring.

Sorry for ni biz kishiga nisbatan achinganimizda ishlatamiz.

I feel sorry for him. — Men unga achinaman.

Agar uzr soʻrashda samimiylilikni va qattiq pushaymonlikni ifoda etmoqchi boʻlsak *I'm sorry* jumlasiga quyidagi soʻzlarni qoʻshib ishlatishimiz mumkin:

so - juda, shunchalik darajada

incredibly - judayam, ishonib boʻlmas darajada

terribly - daxshatli

really - haqiqatda

genuinely - samimiy, chin dildan.

Masalan: *I'm incredibly sorry for being so late.* — Kech qolganim uchun judayam afsusdaman, kechiring.

Leksika (yun. *lexis* — soʻzga oid, lugʻaviy) — tildagi barcha soʻzlar va iboralar yigʻindisi, tilning lugʻat tarkibi. Leksika maʼlum qonun-qoidaga boʻysunuvchi izchil va murakkab tizimdan iborat. Til leksikasi toʻxtovsiz oʻzgarib turadi. Bu narsa lugʻat tarkibida yangi soʻzlarning paydo boʻlishi, mavjud soʻzlardan ayrimlarining eskirib, isteʼmoldan chiqishi, leksik maʼnosini oʻzgartirib, yangi maʼno kasb etishi kabi jarayonlarda koʻrinadi. Jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy tuzumning oʻzgarishi bilan uzviy bogʻlangan holda leksika boyib boradi.

Hozirgi kunda jamiyat taraqqiy etgani sari til boyligimiz ham ortib bormoqda. Yangi soʻzlarning paydo boʻlishi nutqimiz yanada rang barang qilib turmoqda. Shu oʻrinda uzr soʻrashning kuchli va hissiy maʼnolari ham bunga misol boʻla oladi.

Sorry – biror bir kishidan qilgan aybi uchun kechirim soʻrash maʼnosini bildiradi. Masalan: *I am sorry for being late.*

Excuse – biror kishini eʼtiborini tortishda foydalaniladi. Masalan: *Can I have a definition, please?*

Pardon – esa *sorry* va *excuse* leksemalaridan eng xushmuomala formaligi bilan ajralib turadi. Masalan: *Pardon, can you repeat your last sentence, please. I could not catch you.*

Morfologiya (yun. morphe — shakl va logiya) (tilshunoslikda) — 1) tilning morfologik qurilishi; 2) soʻz shakllari haqidagi taʼlimot. Birinchi maʼnosida obʼyektning anglatgani, ikkinchi maʼnosida tilshunoslikning shu obʼyektning oʻrganuvchi boʻlimini bildiradi.

Morfologiya soʻz turkumlari, ularga xos grammatik maʼnolarni, har bir turkumga xos grammatik kategoriyalar, bu kategoriyalarni yuzaga keltiruvchi grammatik shakl va grammatik maʼnolar va sharhini oʻrganadi. Til tizimidan iborat boʻlganidek, uning morfologiyasi ham oʻziga xos tizimni tashkil etadi. Oʻz navbatida, morfologik tizim ham oʻziga xos kichik tizimlardan tashkil topadi. Ulardan har birining mohiyati yoritilishi bilan, tilning morfologiyasi yaxlit holda, tizim sifatida oʻrganiladi.

Har bir soʻz turkumiga xos ichki tizimlarni shu turkumga xos morfologik kategoriyalar tashkil etadi. Morfologik kategoriyalar soʻz turkumiga xos maʼlum bir hodisaga oid umumiy va xususiy maʼnolar va bu maʼnolarni ifodalovchi soʻz shakllari birligidan iborat boʻladi. Ana shu soʻz shakllari va ularga xos umumiy va xususiy maʼnolar yoritilishi bilan muayyan morfologik kategoriyalarning mohiyati belgilanadi. Boshqacha aytganda, morfologik tizim ichidagi ichki tizimlardan birining mohiyati belgilanadi.

Ingliz tili grammatikasi oʻzining murakkab va qoidalarining aniqligi bilan boshqa tillardan ajralib turadi. Bundan tashqari bir soʻzning birdan ortiq maʼnolarining borligi hamda ularning oʻz xususiyatlariga egaligi bilan farqlanadi.

Masalan, *kechir* soʻzining bir nechta maʼnolari mavjud: *sorry, excuse, pardon, apologize*.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, har bir millatning oʻz tili mavjud. Shu bilan birga ular oʻz qonuniyatlariga ega. Ingliz tili grammatikasi ham murakkab bir tuzilishga ega. Rivojlanayotgan zaminda jamiyat bilan birga tilshunoslikning har bir yoʻnalishi har jabhada yoyilib bormoqda. Bu esa ilm fanning ravnaq topib borayotganining isbotidir. Ushbu maqolada biz *uzr* soʻrashning turli yoʻllari, ularning fonetik, leksik va morfologik vositalar orqali ifodalanishi haqida qisqacha maʼlumot berib oʻtdik. Keyingi ishlarimizda ularga yanada kengroq toʻxtalishga harakat qilamiz.

REFERENCES

1. Bozorboyev Oʻ. OʻZME. Hozirgi oʻzbek adabiy tili, 1-jild. – Toshkent, 2000
2. Djurayeva Y., Ayatov R., Sergey A. Current Problems and Resolutions of Teaching English Grammar. Academic research in educational sciences, 2020.
3. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. - Toshkent, 2000-2005
4. <https://uz.wikipedia.org>
5. <https://ziyonet.uz>
6. Sharifjon Toʻlqin oʻg A. et al. TAʼLIM-TARBIYA TIZIMI VA OʻQITUVCHILAR FAOLIYATIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING AHAMIYATI //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2022. – T. 1. – №. 11. – S. 57-60.
7. Саидов А. СОҒЛОМ ВА БАРКАМОЛ ШАХСНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК МАСАЛАЛАРИ //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – Т. 1. – №. Special issue. – С. 262-266.
8. Саидов А., Джураев Р. Воспитание гармоничного поколения–роль спорта в формировании здорового образа жизни //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 203-208.